

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**TENDER SAVDOLARINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH
CHORA-TADBIRLARI TO`G`RISIDA**

(O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2000 y., 9-10-son, 145-modda; 2003 y., 4-son, 42-modda; 17-18-son, 161-modda; 2004 y., 3-son, 31-modda; 2005 y., 34—36-son, 264-modda; 2007 y., 52-son, 534-modda; 2008 y., 52-son, 515-modda; 2009 y., 9-son, 89-modda, 52-son, 560-modda; 2011 y., 7-8-son, 63-modda, 14-son, 137-modda; 2012 y., 6-son, 60-modda, 21-son, 232-modda, 45-son, 516-modda; 2013 y., 15-son, 201-modda, 24-son, 315-modda, 37-son, 485-modda, 46-son, 603-modda; 2014 y., 50-son, 590-modda; 2015 y., 12-son, 139-modda, 44-son, 564-modda)

Xorijiy kreditlar va grantlar mablag`laridan yanada samarali foydalanish, mamlakatimizdagi va chet ellik mahsulot yetkazib beruvchilar o`rtasidagi raqobatni rivojlantirish, mahsulot yetkazib berishga kichik va o`rta tadbirkorlik sub`yektlarini keng jalb qilish, xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarni xarid qilish yuzasidan tender savdolari tashkil etish va o`tkazish tizimini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Belgilansinki, 2000-yil 1-dekabrdan boshlab:

Davlat byudjeti, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg`armalari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumatining qarorlariga muvofiq tashkil etilgan davlat maqsadli jamg`armalari va boshqa byudjetdan tashqari jamg`armalar hamda donor mamlakatlar, xalqaro, xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlar bilan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumati tomonidan tuzilgan shartnomalar doirasida beriladigan xorijiy grantlar mablag`lari, shuningdek O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar hisobiga moliyalashtiriladigan va bitta kontrakt bo`yicha qiymati 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan ortiq bo`lgan import qilinadigan va mamlakatimizda ishlab chiqarilgan xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar tender asosida xarid qilinadi;

(1-bandning ikkinchi xatboshisi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 8-noyabrdagi 319-sonli qarori tahririda — O`R QHT, 2012-y., 45-son, 516-modda)

xorijiy yetkazib beruvchilar bilan tuziladigan tender kontraktlari bo`yicha yuklar tashilishini ta'minlaydigan transport-ekspeditorlik kompaniyalari tender asosida tanlanadi.

Quyidagi hollarda, agar:

tovarlar (ishlar, xizmatlar) O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq xarid qilinayotgan bo`lsa;

donor mamlakatlarning, tegishli xalqaro, xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlarning tartibotlarida yoki O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar berish va xorijiy grantlar berish shartlarida o`zgacha hol belgilangan bo`lsa, tenderlar o`tkazilmaydi.

(1-bandning to`rtinchi xatboshisi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 8-noyabrdagi 319-sonli garori tahririda — O`R QHT, 2012 y., 45-son, 516-modda)

2. Xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarini xarid qilish bo`yicha tender savdolari o`tkazish to`g`risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilab qo`yilsinki, byudjetdan mablag` oluvchilar tovarlar, ishlar, xizmatlarning barcha turlarini xarid qilishda ushbu Nizomga amal qiladilar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

(2-band O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12 dekabrdagi PQ-744-sonli garori asosida ikkinchi xatboshi bilan to`ldirilgan — O`R QHT, 2007 y., 52-son, 534-modda)

Vazirliklar va idoralarga, korxonalar va tashkilotlarga o`z mablag`lari hisobiga xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilishda tasdiqlangan Nizomga amal qilish tavsiya etilsin.

3. Belgilab qo`yilsinki, mazkur qaror talablari bajarilishi ta'minlanishi uchun vazirliklar va idoralar, konsernlar, uyushmalar, korporatsiyalar, kompaniyalar korxonalar, tashkilotlar va hududiy boshqaruvi organlari rahbarlari shaxsan javob beradilar.

4. Vazirliklar va idoralar bir oy muddatda o`z normativ hujjatlarini mazkur qarorga muvofiqlashtirsinlar.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O`zbekiston Respublikasining Bosh vaziri O`. Sultonov zimmasiga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi

I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2000 yil 21 noyabr',
456-son

Vazirlar Mahkamasining
2000 yil 21 noyabrdagi
456-sont qaroriga
ILOVA

**Xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid
qilish bo`yicha tender savdolari o`tkazish to`g`risida**

NIZOM

I. Umumi qoidalar

1. Ushbu Nizom, xorijiy tovar yetkazib beruvchilar bilan bir qatorda, mamlakatimiz korxonalarini, shu jumladan kichik biznes sub'yeqtlarini tender savdolari jarayoniga jalb etish maqsadida ishlab chiqilgan.

(1-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 17-yanvardagi 28-sonli garori tahririda — O`R QHT, 2004 y., 3-son, 31-modda)

2. Nizom:

Davlat byudjeti mablag`lari;

byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg`armalari;

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumatining qarorlariga muvofiq tashkil etilgan davlat maqsadli jamg`armalari va boshqa byudjetdan tashqari jamg`armalar;

donor mamlakatlar, xalqaro, xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlar bilan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumatni tomonidan tuzilgan shartnomalar doirasida beriladigan xorijiy grantlar;

O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar hisobiga moliyalashtiriladigan import qilinadigan va O`zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarni xarid qilish yuzasidan tender savdolari (keyingi o`rinlarda «tenderlar» deb ataladi) o`tkazishni tashkil etish mexanizmini belgilab beradi.

(2-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 8-noyabrdagi 319-sonli garori tahririda — O`R QHT, 2012 y., 45-son, 516-modda)

Iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari doirasida tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishni amalga oshirishda bitta kontrakt bo`yicha 5,0 mln AQSh dollaridan ortiq ekvivalentdagи summadagi tender savdolari Vazirlar Mahkamasining «Tender savdolari o`tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» 2015-yil 14-sentyabrdagi 264-son garorida nazarda tutilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda o`tkaziladi.

(2-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 4-noyabrdagi 317-sonli garoriga asosan xatboshi bilan to`ldirilgan — O`R QHT, 2015 y., 44-son, 564-modda)

3. Ushbu Nizomning amal qilishi:

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlarga muvofiq tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilishga;

agar donor mamlakatlarning, tegishli xalqaro, xorijiy hukumat va nohukumat tashkilotlarning tartibotlarida yoki O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar berish va xorijiy grantlar berish shartlarida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilishning o`zgacha tartibi belgilangan bo`lsa, tatbiq etilmaydi.

(3-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 8-noyabrdagi 319-sonli garori tahririda — O`R QHT, 2012 y., 45-son, 516-modda)

4. Quyidagilar:

xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilishga yo`naltiriladigan davlat byudjeti, davlat byudjetida jamlanadigan byudjetdan tashqari maqsadli jamg`armalar mablag`laridan, Hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va xorijiy grantlardan foydalanish samaradorligini oshirish;

xarid qilinadigan xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar sifatini oshirish tenderlar o`tkazishning maqsadi hisoblanadi.

5. Tender savdolari 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan ortiq bitta kontrakt bo`yicha tovarlar yetkazib berishni amalga oshirishda o`tkaziladi.

300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha teng summadagi bitta kontrakt bo`yicha yetkazib berishlarni amalga oshirishda xaridlar buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan maxsus komissiya qaroriga ko`ra quyidagi yo`llar bilan eng yaxshi takliflarni tanlab olish asosida tender savdolari o`tkazmasdan (ushbu Nizomning 5⁴ va 5⁵-bandlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari) amalga oshiriladi.

(5-bandning ikkinchi xatboshisi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 26-martdagи 69-sonli garori tahririda — O`R QHT, 2015 y., 12-son, 139-modda)

5¹. Quyidagi hollarda tender (tanlov) o`tkazmasdan tovar yetkazib beruvchilar (bajaruvchilar, pudratchilar) bilan kontraktlar tuzilishi mumkin:

1) tovarlar yetkazib berish, tabiiy monopoliyalar sub`yektlari faoliyati sohasiga tegishli bo`lganda;

2) tovarlar birja orqali xarid qilinganda;

3) shartnoma tuzish vaqtida 300 AQSh dollariga teng oshmagan summada tovarlar sotib olinganda ro`yxati Davlat xaridlari bo`yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan, davlat xaridlari O`zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot portalini orqali elektron savdo yo`li bilan amalga oshiriladigan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar) bundan mustasno;

(5¹-bandning «3» kichik bandi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 26-martdagи 69-sonli garori tahririda — O`R QHT, 2015 y., 12-son, 139-modda)

4) tarix va madaniyat yodgorliklari sifatida davlat muhofazasiga olingen hamda davlat muzey, kutubxona, arxiv fondlarini, kinofotofondini va boshqa shunga o`xshash fondlarni to`ldirish uchun mo`ljallangan tarixiy, badiiy yoki boshqa madaniyat ahamiyatiga molik madaniy boyliklar (kartinalar, skulpturalar, adabiy asarlar va boshqalar), shu jumladan muzey predmetlari va muzey kolleksiyalari, shuningdek nodir va qimmatli nashrlar va qo`lyozmalar, arxiv hujjatlari, jumladan ularning nusxalarini yetkazib berishni amalga oshirganda;

5) tovarlarni sotishga alohida huquqi bo`lgan faqat bitta yetkazib beruvchidan tovarlar xarid qilish mumkin bo`lganda;

6) tuzilgan kontraktning shartlari dastlabki kontrakt umumiyl summasining 20 foizidan oshmaydigan summaga teng qo`shimcha ishlarni bajarish maqsadida o`zgarganda;

7) bajarish yoki xizmat ko`rsatishni amalga oshirish faqat davlat hokimiyyati va boshqaruв organlari tomonidan yoki ularga bo`ysunuvchi davlat muassasalari va korxonalari tomonidan ularning vakolatlariga muvofiq mumkin bo`lgan ishlar yoki xizmatlarga ehtiyoj tug`ilganda;

8) yengib bo`lmas kuchlar (tabiiy ofatlar, yong`inlar, falokatlar, avariylar va hokazolar) oqibatlarini bartaraф etish (oldini olish) uchun zarur bo`lgan muayyan tovarlarga byudjet tashkilotlarining tezkor ehtiyoji tug`ilganda, buning natijasida vaqtning yo`qotilishi talab qilinadigan boshqa buyurtmani joylashtirish usullarini qo`llash maqsadga muvofiq bo`limganda (O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yoki uning hududiy bo`linmalari (keyingi o`rinlarda moliya organlari deb ataladi) bilan kelishuvi bo`yicha);

(5¹-bandning 8-kichik bandi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrdagi PQ-2270-sonli garori tahririda — O`R QHT, 2014 y., 50-son, 590-modda)

9) yetkazib beruvchilarning yoki kontraktda ularning manfaatdorligi yo`qligi sababli buyurtmachi tomonidan, byudjet tashkilotlari tomonidan o`tkazilgan tender (tanlov) bo`lib o`tmagan deb hisoblash natijasida, agar buyurtmachi uzoq tumanlarda joylashgan bo`lsa, buyurtmachining faoliyat ko`rsatish hududida va yaqin joylashgan tumanlarda faqat bitta yetkazib beruvchi mavjud bo`lsa, shuningdek boshqa joylardan narx kotirovkalarini olish hech qanday foyda olish yoki iqtisod qilish aniqlanganda va transport xarajatlari uchun narxlar oshib ketishiga olib kelganda. Bunda yagona yetkazib beruvchiga buyurtmalarni joylashtirish tegishli moliya organlari bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

(5¹-bandning 9-kichik bandi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrdagi PQ-2270-sonli garori tahririda — O`R QHT, 2014 y., 50-son, 590-modda)

10) Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasи, shuningdek hududiy va tarmoq sanoat yarmarkalari doirasida asbob-uskunalar,

butlovchi buyumlar, qayta ishlangan xom ashyo va materiallar, shu jumladan mamlakatimiz korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlarini xarid qilish.

(*5¹-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-apreldagi 100-sonli qaroriga asosan 10-kichik band bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2013 y., 15-son, 201-modda*)

5². Yengib bo'lmas kuchlar oqibatlarini bartaraf etish (oldini olish) uchun tovarlarga shoshilinch ehtiyoj vujudga kelgan taqdirda yoki kontraktda ularning manfaatdorligi yo'qligi sababli tender (tanlov)ni bo'lib o'tmagan deb hisoblash natijasida buyurtmachi tender (tanlov) o'tkazmasdan yagona yetkazib beruvchiga buyurtmani joylashtirish to'g'risidagi qarorni kelishish uchun tegishli moliya organlariga yozma murojaat yuboradi.

Yagona yetkazib beruvchiga buyurtmani joylashtirish to'g'risidagi qarorning kelishish muddati tegishli moliya organiga kelishish to'g'risida murojaat kelib tushgan kundan boshlab o'n ish kunidan oshmasligi kerak.

Buyurtmachi tomonidan tender. (tanlov) bo'lib o'tmagan deb hisoblash natijasida yagona yetkazib beruvchiga buyurtmani joylashtirish to'g'risidagi qaror qabul qilingan taqdirda uni kelishish uchun tegishli moliya organiga murojaatdan tashqari, shuningdek tender (tanlov) o'tkazish va uni bo'lib o'tmagan deb hisoblash to'g'risidagi hujjatlarning nusxalari taqdim qilinadi.

Bunda kontrakt yagona yetkazib beruvchi bilan faqat tender (tanlov) hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda tuzilishi mumkin, tuzilgan kontrakt bahosi tender (tanlov) o'tkazish to'g'risidagi xabarnomada ko'rsatilgan kontraktning dastlabki bahosidan oshmasligi kerak.

(*5¹ va 5²-bandlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-sonli qaroriga asosan kiritilgan — O'R QHT, 2008 y., 52-son, 515-modda*)

5³. Markazlashtirilgan manbalar hisobiga davlat xaridlarini amalga oshiradigan barcha tashkilotlar maxsus axborot portalida, mazkur Nizomning 5¹-bandi 1, 3 — 9-kichik bandlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchini aniqlash yoki tender savdolarini o'tkazish sanasigacha kamida 30 kun oldin kelgusi xaridlar to'g'risida, shuningdek birja savdolarida tovarlar xarid qilish va Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilangan boshqa holatlar to'g'risidagi e'lonni joylashtirishi shart.

Markazlashtirilgan manbalar hisobiga davlat xaridlarini amalga oshiradigan barcha tashkilotlar maxsus axborot portalida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlardan tashqari, shartnomalar (kontraktlar) tuzish sanasidan boshlab 3 kun mobaynida buyurtmalarni joylashtirish natijalari to'g'risidagi axborotni joylashtirishi shart.

Ustav fondida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan Tabiiy monopoliyalar sub'yektlari, davlat unitar korxonalarini va xo'jalik jamiyatlarini O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot

portaliga hamda «Birja» gazetasiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchini aniqlash sanasigacha kamida 15 kalendar kun oldin kelgusi xaridlar to`g`risidagi axborotni, shuningdek shartnomalar (kontraktlar) tuzish sanasidan boshlab 3 kun mobaynida buyurtmalarni joylashtirish natijalari to`g`risidagi axborotni joylashtiradilar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

(⁵-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 11-iyundagi 166-sonli garori tahririda — O`R QHT, 2013 y., 24-son, 315-modda)

5⁴. 300 AQSh dollaridan 100 ming AQSh dollarigacha summaga bitta kontrakt bo`yicha ro`yxati Davlat xaridlari bo`yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan tovarlar, ishlar va xizmatlarning ayrim turlari davlat xaridlari O`zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasи tomonidan tashkil etiladigan elektron auksion savdolar orqali amalga oshiriladi, ushbu Nizomning 5¹ va 5⁵-bandlarida nazarda tutilgan hollar, shuningdek tovarlarni Davlat xaridlari bo`yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilangan boshqa hollarda xarid qilish bundan mustasno.

(⁵-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 26-martdagи 69-sonli garori tahririda — O`R QHT, 2015 y., 12-son, 139-modda)

5⁵. Bitta kontrakt bo`yicha qiymati ekvivalentda 100 ming AQSh dollarigacha bo`lgan ro`yxati Davlat xaridlari bo`yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar) tadbirkorlik sub`yektlaridan O`zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot portali orqali elektron savdo yo`li bilan xarid qilinadi, ushbu Nizomning 5¹-bandi 1-2, 4 — 10-bandlarida nazarda tutilgan hollarda, shuningdek Davlat xaridlari bo`yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilangan boshqa hollarda tovarlar xarid qilish bundan mustasno.

(⁵-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 26-martdagи 69-sonli garoriga asosan kiritilgan — O`R QHT, 2015 y., 12-son, 139-modda)

6. Tender bo`yicha xaridlarda qatnashuvchi mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (yetkazib beruvchilari) bilan hisob-kitoblar so`mlarda, xalqaro moliya institutlari, donor mamlakatlar, xorijiy davlatlar Hukumatlari, boshqa norezidentlar mablag`lari hisobiga O`zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilayotgan loyihamlar bo`yicha xalqaro tenderlarda qatnashayotganlar bilan esa — kontraktda ko`rsatilgan valyutada amalga oshiriladi.

(6-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 13-noyabrdagi 307-sonli garori tahririda — O`R QHT, 2013 y., 46-son, 603-modda)

7. Qarorlarni oshkora va xolisona qabul qilish, mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (yetkazib beruvchilari) uchun ustuvorlikni saqlagan holda tender qatnashchilari uchun teng raqobat sharoitlari yaratish tenderlar o`tkazishni tashkil etishning asosiy tamoyillari hisoblanadi.

8. Tender savdolari xaridlarning faqat manbalarning mavjudligi va mablag` bilan ta'minlash miqdorlari to`g`risida tasdiqnomalar (moliya organlari yoki byudjetdan tashqari jamg`armalarni tasarruf etuvchilarning bildirish xati, xorijiy kreditorlar bilan Hukumat kafolati ostida imzolangan kredit shartnomalari, xorijiy grantlar berish to`g`risidagi bildirish xati va boshqalar) mavjud bo`lgan hajmi bo`yicha e`lon qilinishi mumkin.

II. Tenderlarni tashkil etish

9. Tenderlar tenderlarni o`tkazishning doimiy yoki vaqtinchalik organi bo`lgan tender komissiyasi tomonidan o`tkaziladi.

Tender komissiyasi tovar yetkazib berish qiymati 1,0 mln AQSh dollariga teng miqdordan oshmaydigan bitta kontrakt bo`yicha amalga oshirilganda xarid qiluvchi tashkilot (keyingi o`rinlarda «buyurtmachi» deb ataladi) tomonidan tuziladi. Tovar yetkazib berish qiymati 1,0 mln AQSh dollariga teng miqdordan oshadigan bitta kontrakt bo`yicha amalga oshirilgan taqdirda tender komissiyasi buyurtmachi tomonidan Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda tuziladi.

Tarmoq vazirliliklari va idoralari rozi bo`lgan taqdirda ularning viloyat, tuman, shahar bo`limlari, ushbu Nizom talablariga riosa qilgan holda, tender o`tkazish bo`yicha buyurtmachilar bo`lishi mumkin.

10. Tender komissiyasi a'zolari soni toq (odatda kamida to`qqiz, o`n bir kishi), shu jumladan uning tarkibi quyidagilardan iborat bo`ladi:

buyurtmachining vakillari;

O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, O`zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo`mitasi yoki ularning hududiy bo`linmalari vakillari (zarur bo`lganda);

(10-bandning uchinchi xatboshisi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 9-sentyabrdagi 244-sonli garori tahririda — O'R QHT, 2013 y., 37-son, 485-modda)

xizmat ko`rsatuvchi tijorat banki va mustaqil ekspert tashkilotlar vakillari;

buyurtmachining yuqori tashkilotlari, vazirliklari, idoralari vakillari;

tender savdolari xorijiy tovar yetkazib beruvchilarni jalb etgan holda tashkil qilingan taqdirda, transport-ekspeditorlik kompaniyalari vakillari.

Buyurtmachining yoki unga qarashli korxonalar va tashkilotlar vakillari soni tender komissiyasi tarkibining 30 foizidan oshmasligi kerak.

Tender komissiyasi a'zolarining tayinlanishi yuzasidan buyurtmachi javob beradi.

11. Tender komissiyasining ishchi organi tenderlarni o`tkazishni (tovar yetkazib beruvchilarni oldindan malakali tanlash, tushadigan takliflarni ekspert baholash, binolar va yordamchi xodimlar berish, reklama ishlarini tashkil etish, tender komissiyasi hujjatlarini va shu kabilarni amalga oshirishni) amalda tashkil etuvchi asosiy organ hisoblanadi.

12. Buyurtmachining tanlovi bo'yicha shartnoma asosida ixtisoslashgan tashkilot yoki buyurtmachining o'zi ishchi organ bo'lishi mumkin, u zarur bo'lganda shartnoma asosida boshqa tashkilotlar mutaxassislarini ham jalb etishi mumkin.

Tovar yetkazib berish qiymati 1,0 mln AQSh dollariga teng miqdordan oshadigan bitta kontrakt bo'yicha amalga oshirilganda ishchi organ buyurtmachi tomonidan Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda belgilanadi.

Ishchi organ — ixtisoslashgan tashkilotning, shuningdek boshqa tashkilotlar mutaxassislarining huquq va vazifalari doirasi shartnomalarda belgilanadi.

13. Tenderlarni o'tkazishda buyurtmachi:

tenderlarni o'tkazish, ularning o'tkazilish sanasi to'g'risida qaror qabul qiladi, sotib olinadigan tovarlarning eng yuqori bahosini belgilaydi va rasmiy farmoyish chiqaradi;

(13-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2008 y., 52-son, 515-modda)

ishchi organ faoliyatini nazorat qilib boradi va tender komissiyasi ishida qatnashadi;

tender hujjatlarini tayyorlash shartlarini belgilaydi;

tenderlarni tayyorlash va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshiradi;

tender g'olibini bilan kontrakt tuzadi.

14. Ishchi organ buyurtmachi bilan kelishgan holda:

savdo va uni rasmiylashtirish tartibotini belgilaydi;

tender hujjatlarini ishlab chiqishni tashkil etadi;

ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi va/yoki taklifnomalar jo`natishni tashkil etadi;

jalb etiladigan ekspertlar va konsultantlar faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

da'vogarlarni tender hujjatlari bilan tanishtiradi;

arizalarni qabul qiladi, ularning hisobga olib borilishini, saqlanishini va maxfiyligini ta'minlaydi.

III. Tenderlarning turlari

15. O'tkazish usullariga ko'ra tenderlar ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin. Tender turi buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

16. Ochiq tenderlarda, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha yuridik shaxslar qatnashishi mumkin.

17. Yopiq tenderlar istisno hollarda Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda, buyurtmachi oldindan belgilab qo'yan tashkilotlar ishtirokida o'tkaziladi, bu tashkilotlarga taklifnomalar jo`natiladi.

IV. Tenderni tashkil etish va o`tkazish bosqichlari

18. Tenderni tashkil etish va o`tkazish quyidagi bosqichlardan iborat bo`ladi:

tenderning sohasini belgilash;

tender hujjatlarini (ixtisoslashgan texnik va tijoriy konsultantlarni jalgan holda) tayyorlash;

tenderni ommaviy axborot vositalarida e`lon qilish va/yoki tenderda qatnashishi mumkin bo`lganlarga tenderda qatnashish uchun taklifnomalar jo`natish;

tender qatnashchilaridan tender bo`yicha takliflarni qabul qilish;

tenderda qatnashishi mumkin bo`lganlarni aniqlash;

tender bo`yicha tushgan takliflarni baholash va tender g`olibini aniqlash;

tender g`olibi bilan kontraktni imzolash.

V. Tender to`g`risidagi e`lonlarni tayyorlash va chop etish

19. Ishchi organ tender (tender savdolari) o`tkazilishidan kamida 30 kun oldin tender to`g`risidagi axborotni ommaviy axborot vositalarida e`lon qilish (bunda ushbu maqsad uchun ham mamlakatimizda, ham chet ellarda eng keng tarqalgan va ixtisoslashgan jurnallar, gazetalarni tanlash majbuliy hisoblanadi) va/yoki mamlakatimizdagagi ishlab chiqaruvchilarni, shu jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`yektlarini albatta jalgan holda pochta, telefaks orqali yoki boshqacha shaklda aniq da`vogarlarga rasmiy taklifnomalar yuborish yo`li bilan da`vogarlarga yetkazadi.

Yopiq tenderlar o`tkazilganda tender to`g`risidagi e`lon ommaviy axborot vositalarida chop etilmaydi.

(19-bandning birinchi xatboshi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 20-fevraldagi 50-sonli qarori tahririda — O`R QHT, 2009 y., 9-son, 89-modda)

20. Tenderlar to`g`risidagi axborotda quyidagi ma'lumotlar bo`ladi:

ishchi organning nomi;

tenderning mavzusi;

tovarni yetkazib berish shartlari va mo`ljallangan yetkazib berishni bajarish muddatlari;

sotib olinadigan tovarning eng yuqori narxi;

(20-band O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-sonli qaroriga asosan beshinchi xatboshi bilan to`ldirilgan— O`R QHT, 2008 y., 52-son, 515-modda)

tenderda qatnashish uchun da`vogarlarni oldindan malakali tanlash muddatlari;

tender hujjatlarini olishi mumkin bo`lgan tender komissiyasi ishchi organining manzili, bog`lanish telefoni va telefaksi;

tender hujjatlarining narxi;

tender bo'yicha taklif berish vaqtida tender qatnashchisi uchun zakalat summasi;

tender komissiyasi tomonidan takliflarni qabul qilib olishning (kun va soat ko'rsatilgan holdagi) so'nggi muddati;

mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan narx imtiyozlari;

(20-bandning o'n birinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 20-fevraldagi 50-sonli garori tahririda — O'R QHT, 2009 y., 9-son, 89-modda)

mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (yetkazib beruvchilar)ning, shu jumladan kichik biznes korxonalarining tenderda qatnashishi mumkinligiga doir ko'rsatmalar.

(20-bandning o'n birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 17-yanvardagi 28-sonli garori tahririda — O'R QHT, 2004 y., 3-son, 31-modda)

VI. Tender hujjatlariiga qo'yiladigan asosiy shartlar

21. Tender hujjatlari quydagilardan iborat bo'ladi:

tender qatnashchisi uchun yo'riqnomalar;

tenderning texnik qismi;

tenderning tijorat qismi;

kontraktning rasmiy shakli.

22. Tender qatnashchisi uchun yo'riqnomada:

tenderlar qachon o'tkazilishi to'g'risida ma'lumot olish yuzasidan tender komissiyasining ishchi organi vakili bilan bog'lanish uchun manzil va bog'lanish telefonlari;

tender komissiyasiga yuborilayotgan tender takliflarining nusxalari soni to'g'risida ko'rsatma;

tender taklifini rasmiylashtirish tartibi va uni vizlashga nisbatan qo'yiladigan talab;

tender taklifi uning qatnashchisi tomonidan tender komissiyasiga taqdim etilgandan so'ng unga o'zgartirishlar kiritish va uni rasmiylashtirish tartibi;

narxlar belgilash va valyutaga oid ko'rsatma;

tender komissiyasiga takliflar berish tartibotiga nisbatan talab;

tender qatnashchisining kelishib olingan vaqt mobaynida o'z taklifidan qaytmasligini kafolatlovchi zakalat pulining miqdori, uni to'lash va qaytarib olish tartibi;

buyurtmachining xohishiga ko'ra — tender savdolari natijalari bo'yicha tuzilgan kontraktni zarur darajada bajarish yuzasidan beriladigan pul kafolati (garovga sifatidagi)ning miqdori, uni to'lash va qaytarib olish tartibi;

tender qatnashchilari tomonidan tender hujjatlari talablariga asoslangan takliflar bilan bir qatorda muqobil takliflar berish mumkinligi to`g`risida axborot;

tender qatnashchisining iltimosi asosli bo`lganda tenderlarning yopilishi sanasini boshqa kunga ko`chirish mumkinligiga oid ko`rsatma;

har qanday hujjatning va o`tkazilgan tenderlar doirasida tuziladigan hujjatlarning maxfiylici ta'minlanishi;

takliflar solingen konvertlarni ochish tartiboti bayoni va tender komissiyasi tomonidan tender g`olibini aniqlash muddati ko`rsatiladi.

23. Tenderning texnik qismida xarid qilinadigan tovarga nisbatan zarur texnologiya talablari bo`ladi.

24. Tender hujjatining tijorat qismi quyidagilarni o`z ichiga oladi:

tovar narxi va uni belgilash tartibi (tender savdolarida qatnashish uchun xorijiy tovar yetkazib beruvchilar jalb qilingan hollarda xarid qilinadigan tovarlarni tashib keltirishning qiymati alohida ajratib ko`rsatiladi);

yetkazib berish shartlari;

to`lov sharti va to`lovlar jadvali;

bitishuvlarni mablag` bilan ta'minlash manbalari.

25. Kontrakt rasmiyatichiligi kontraktlarga nisbatan qo`yiladigan talablarga javob berishi kerak, jumladan:

kontraktning xalqaro savdo huquqining umumiyligini qabul qilingan me`yorlariga muvofiqligi;

kontraktning O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va normativ hujjatlariga muvofiqligi.

Bitim (kontrakt) rasmiyatichiliklarini tuzish chog`ida buyurtmachi yoki ishchi organ maslahatlashish uchun shartnomalar asosida ixtisoslashtirilgan konsalting firmalariga murojaat qilishga haqlidir.

VII. Tender qatnashchilari

26. Tenderlarda ularda qatnashish uchun qo`yiladigan shartlarni bajargan, tender asosida xarid qilinadigan mahsulotning tegishli hajmlarini etkazib berish tajribasiga ega bo`lgan ham xorijiy firmalar va tashkilotlar, ham vatanimiz ishlab chiqaruvchilari (tovar yetkazib beruvchilari) qatnashishlari mumkin.

27. E`lon bosib chiqarilgandan so`ng tenderda qatnashishni xohlovchi da`vogarlar tender hujjatlari oladilar, ular pul to`lash asosida har bir da`vogarga beriladi. Tender hujjati olish uchun to`lov miqdori tender komissiyasi tomonidan belgilanadi. Mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari (tovar yetkazib beruvchilari) uchun tender hujjatlari olish uchun to`lov miqdori so`mlarda belgilanadi.

28. Ishchi organ tushgan buyurtmanomalar va mazkur Nizomga asosan da`vogarlarni oldindan malakali tanlab olish uchun materiallarni to`playdi va tartibga soladi.

VIII. Tenderda qatnashish uchun da'vogarlarni tanlab olish

29. Tender boshlangunga qadar tenderda ishtirok etish uchun qo'yiladigan da'vogarlarning tender komissiyasi tomonidan malakali tanlovi o'tkaziladi.

30. Ishchi organi tomonidan amalga oshiriladigan malakali tanlovda: qayta tashkil etish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan; malakali tanlov uchun barcha zarur hujjatlarni belgilangan muddatda taqdim etmagan;

ilgari tuzilgan kontraktlar bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni zarur darajada bajarmagan;

tender e'lom qilingunga qadar ta'sis etilganiga 6 oy bo'Imagan; buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasida ishi ko'rib chiqilayotgan;

tijorat va moliya ko'rsatkichlari bo'yicha tender komissiyasining talablariiga javob bermaydigan tashkilotlar va firmalarning tenderlarda ishtirok etishlariga yo'l qo'yilmaydi.

31. Tanlab olingan qatnashchilar ro'yxati tender komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

32. Tenderda qatnashishga ruxsat etishni rad etish to'g'risidagi qaror tender komissiyasi tomonidan qabul qilinadi va bu haqda ishchi organ da'vogarlarni yozma ravishda xabardor qiladi.

IX. Tender o'tkazish tartibi

33. Ommaviy axborot vositalarida tender o'tkazish to'g'risidagi e'lom rasman bosib chiqarilgan sana yoki tender qatnashchisi pochta (sana pochta shtempeli bo'yicha aniqlanadi), telefaks bo'yicha yoki boshqa shaklda xabar qilingan (taklif etilgan) sana tender ochilgan sana hisoblanadi.

34. O'tkaziladigan tenderlar doirasida tender takliflari tayyorlash muddati tender komissiyasi tomonidan belgilanadi va tender ochilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatib o'tiladi.

35. Tender komissiyasi tender takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin, ushbu qaror tenderning barcha qatnashchilariga nisbatan joriy etiladi.

36. Tender komissiyasi o'z ishi tartibini mustaqil ravishda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Mazkur masala bo'yicha qaror tender komissiyasi a'zolari umumiy sonining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolgan hollarda tender komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

37. Har bir aniq holatda tender komissiyasi tenderda qatnashish uchun da'vogar tomonidan beriladigan zakalatni olish tartibi, miqdori va shaklini belgilab beradi. Zakalat miqdori xarid hisob-kitob qiymatining 1-5 foizi doirasida bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Zakalatlar buyurtmachi yoki ishchi organning hisobvarag'iga kiritiladi (agar ixtisoslashtirilgan tashkilot ishchi organ bo'lib hisoblangan hollarda). Mamlakatimiz tovar ishlab

chiqaruvchilari (tovar yetkazib beruvchilari)ning zakalatlari so`mlarda olinadi.

38. Tender takliflari faqat muhrlangan ikki qavatli xat jilda qabul qilinadi. Ishchi organning nomi va manzili ko`rsatilgan tashqi xat jilda tender qatnashchisi tomonidan zakalat berilganligini tasdiqlovchi hujjat, ichki xat jilda — tender taklifi, savdosi e`lon qilingan tovarning nomi va takliflarni qabul qilish uchun belgilangan sana bo`ladi.

Barcha hujjatlar ro`yxatga olish daftariga topshiruvchi va qabul qilib oluvchi shaxsning imzosi bilan qabul qilib olingan sana va vaqt yozib qo`yilgan holda qabul qilinadi. Ro`yxatga olish daftari ip o`tkazib bog`langan, tartib raqami qo`yilgan va buyurtmachining yoki ishchi organ (ixtisoslashtirilgan tashkilot)ning gerbli muhri bilan tasdiqlangan bo`lishi kerak.

39. Xat jidlarni ochish tartibi, ularni ko`rib chiqish va saqlash tartibi maxfiylik me'yoriga riosa qilingan holda tender komissiyasi tomonidan belgilanadi.

40. Tender komissiyasi tender buyurtmanomalarini qabul qilishning oxirgi sanasini, xat jidlarni ochish vaqtini va joyini belgilaydi.

Ko`rsatib o`tilgan sanadan keyin olingan takliflar ko`rib chiqilmaydi va xat jildlar ochilmasdan tender qatnashchilariga qaytarib yuboriladi. Tender qatnashchisi ko`rsatib o`tilgan sanadan so`ng o`zgartirishlar kiritgan yoki o`z taklifini qaytarib olgan hollarda zakalat unga qaytarib berilmaydi. Tender qatnashchisi tender buyurtmanomalari qabul qilib olinadigan oxirgi sanagacha kechi bilan 5 kun muddatda o`z taklifini qaytarib olish huquqiga egadir.

41. Tender komissiyasi majlisini o`tkazish uchun kvorum uning tarkibining 70 foizini tashkil etadi. Tender komissiyasining barcha majlislari va barcha qabul qilingan qarorlari protokollar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Tender qatnashchilarining takliflari solingan xat jildlar bevosita tender komissiyasi majlisida ochiladi. Bunday hollarda tender komissiyasi majlisining protokolida tender qatnashchilari tomonidan taqdim etilgan takliflarning tender hujjatlariga muvofiqligi yozib qo`yiladi.

42. Tender takliflarini ko`rib chiqish muddati tender komissiyasi tomonidan xat jild ochilgan vaqtdan boshlab belgilanadi. Bu muddat sotib olinadigan tovarning turiga bog`liq bo`lib uch oydan ortiq bo`lishi mumkin emas. Takliflarni ko`rib chiqish chog`ida ularning tender hujjatlari talablariga muvofiqligi aniqlanadi, zarur hujjatlarning mavjudligi va ularning to`g`ri rasmiylashtirilishi tekshiriladi.

43. Tender komissiyasi tushgan takliflarning tender shartlariga muvofiqligini tekshiradi va tender shartlarida belgilangan, shuningdek ushbu Nizom X-I bo`limining talablariga muvofiq, eng ko`p raqobat narxlari, yetkazib berish shartlari, to`lov va boshqa mezonlar bo`yicha g`oliblarni aniqlaydi.

Sharoitlar teng bo`lgan boshqa hollarda g`olibni aniqlashda mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilari (yetkazib beruvchilari)ga ustunlik beriladi.

(43-bandning birinchi xatboshi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 20-fevraldagi 50-sonli qarori tahririda — O`R QHT, 2009 y., 9-son, 89-modda)

44. Tenderni tashkil etish va o`tkazish xarajatlari, shuningdek, ekspert tashkilotlarining xizmatlari uchun to`lovlar qatnashchilar tomonidan tender hujjatlarini sotib olish uchun to`langan mablag`lardan to`lanadi.

45. Tender o`tkazilgandan keyin buyurtmachi yoki ishchi organ (ixtisoslashtirilgan tashkilot) qatnashchilarga (g`olib bundan mustasno) ularning zakalatlarini bank operatsiyalarini o`tkazish xarajatlarini chiqarib tashlagan holda qaytaradi. Zakalat tender g`olib e`lon qilingan vaqtidan boshlab belgilangan muddat mobaynida, biroq 11 bank kunidan kechiktirmay qaytariladi. Tender g`olibining zakalati kontrakt shartlari bajarilib bo`lgunga qadar bunday kontrakt shartlarining tender g`olib tomonidan kerakli tarzda bajarilishiga kafolat sifatida buyurtmachining ixtiyorida qolishi mumkin.

46. Tenderda qatnashish huquqi boshqa yuridik shaxslarga berilishiga yo`l qo`yilmaydi.

47. Agar:

tenderni yopish muddati tugaydigan vaqtgacha birorta ham tender taklifi tushmasa;

tenderga kamida uchta qatnashchining taklifi taqdim etilsa;

(47-bandning uchinchi xatboshisi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-apreldagi 100-sonli qarori tahririda — O`R QHT, 2011 y., 14-son, 137-modda)

taqdim etilgan barcha tender takliflarida zarur hujjatlarning paketi bo`limganda tender komissiyasi tomonidan tender o`tkazilmagan deb e`lon qilinishi mumkin.

kichik biznes sub`yektlari uchun ajratilgan kvotalar bo`yicha o`tkaziladigan tender qatnashchilari orasida ushbu toifa tashkilotlar bo`lmasa.

(47-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-apreldagi 100-sonli qaroriga asosan xatboshi bilan to`ldirilgan — O`R QHT, 2011 y., 14-son, 137-modda)

48. Agar tushgan tender takliflarining birortasi tender hujjatlari shartlariga muvofiq bo`limgan taqdirda, tender o`tkazildi, ammo salbiy natijaga ega deb hisoblanadi.

X. Tender takliflarini baholash tartibi

49. Tender takliflarini baholash tender komissiyasi tomonidan belgilangan muddat mobaynida o`tkaziladi. Takliflarni baholash tender komissiyasi tomonidan belgilangan har bir baholash mezoni bo`yicha ball qo`yish yo`li bilan amalga oshiriladi. Tender qatnashchilari yoki ularning

vakillari tender takliflarini baholash chog`ida qatnashish huquqiga ega emas. Baholash chog`ida tender komissiyasi tushuntirishlar berish, qo`srimcha ma'lumotlar va tasdiqlashlar olish uchun da`vogarlarni chaqirish huquqiga ega. Tender xulosalarini chiqarishda tender qatnashchilari va ularning ishonchli vakillari ishtiroy etishi mumkin.

50. Tender komissiyasi tender takliflarini baholash uchun ekspert va maslahat beruvchi tashkilotlarning vakillarini jalb qilishi mumkin.

51. Tender qatnashchilari tomonidan taqdim etilgan takliflar bilan tanishgandan keyin tender komissiyasining har bir a'zosi asoslangan yozma xulosa berish huquqiga ega.

52. Tender g`olibni to`g`risidagi rasmiy qaror tender komissiyasi tomonidan qabul qilinadi. Ushbu masala bo`yicha qaror tender komissiyasi a'zolari sonining oddiy ko`pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo`lgan taqdirda Tender komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

53. Tender takliflarini ko`rib chiqish va baholash to`g`risidagi ma'lumotlar baholash tartibotiga rasman aloqasi bo`lmagan shaxslarga ma'lum qilinmaydi. Tender komissiyasi a'zolari va jalb etilgan ekspertlar mazkur ma'lumotlarning oshkor qilinishi uchun javob beradilar.

54. Arifmetik yoki boshqa xatolar mavjud bo`lgan taqdirda tender komissiyasi tender takliflarini qaytarish yoki tender takliflarini bundan keyin tenderda ko`rib chiqish shartlarini, bu haqda tender qatnashchisini xabardor qilgan holda, belgilash huquqiga ega.

55. Tender takliflarini baholash va tender g`olibini aniqlash:

tender hujjatlarida bayon qilingan mezonlarga;

taklif etilgan narxlarning o`rtacha jahon va konsalting firmasi, yoki Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Tovar bozorlari kon'yunkturasini o`rganish hamda investitsiya loyihalari va dasturlarini ekspertiza qilish respublika markazi yoki Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining xulosalari bo`yicha bozor kon'yunkturasida yuzaga kelgan narxlarga mosligiga asosan amalga oshiriladi.

(55-bandning uchinchi xatboshisi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 8-sentabrdagi 206-son garori tahririda — O'R QHT, 2005 y., 34-36-son, 264-modda)

Ishtirokchilarning tijorat takliflarini teng shartlarga keltirish maqsadida qonun hujjatlariga muvofiq qo`srimcha qiymat solig`idan ozod qilinadigan import qiluvchilar, import tovarlar yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko`rsatish)dagi tender takliflari ishtirokchilarining tender takliflarini baholashda ko`rsatilgan soliq summasini qo`shgan holda hisoblanadi;

(55-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 20-fevraldagi 50-sonli garoriga asosan to`rtinchi xatboshi bilan to`ldirilgan — O'R QHT, 2009 y., 9-son, 89-modda)

Shuningdek, taqdim etilgan tender takliflarining qo'shimcha texnik, tashkiliy va tijoriy ustunliklari hamda tender qatnashchisining obro'-e'tibori ham e'tiborga olinishi mumkin.

Bunda, agar tenderda xorijiy yetkazib beruvchilar bilan birga mamlakatimiz korxonalari-ishlab chiqaruvchilari ishtirok etsa, bu korxonalarga tovarlar va xizmatlar davlat xaridi (Davlat byudjeti, Respublika yo'l jamg`armasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyat muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg`armasi va ijtimoiy soha muassasalarining byudjetdan tashqari mablag`lari), shuningdek davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo`lgan korxonalar mablag`lari hisobiga xarid qilish doirasida amalga oshiriladigan tender savdolarida ishtirok etganda 20 foizgacha miqdorda narx imtiyozlari beriladi.

(55-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 3-fevraldagagi 30-sonli garori tahririda — O'R QHT, 2012 y., 6-son, 60-modda)

Boshqa teng sharoitlarda kichik biznes sub'yektlariga afzallik beriladi.

(55-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-apreldagi 100-sonli garoriga asosan xatboshi bilan to`ldirilgan — O'R QHT, 2011 y., 14-son, 137-modda)

56. Tender komissiyasining tender g`olibni to`g`risidagi protokolida quyidagi ma'lumotlar bo`ladi:

tender g`olibni va tender g`olibidan keyin eng yuqori ballga ega bo`lgan zaxiradagi qatnashchilarining nomlari;

tender komissiyasining tarkibi;

ovozi berish natijalari;

tender qatnashchilarining tender takliflari jamlama jadvali;

tender g`olibni bilan kontraktni imzolash muddatlari.

Protokol tender komissiyasining qatnashayotgan a'zolari tomonidan imzolanishi va tender komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

57. Agar tender g`olibni kontrakt tuzishdan bosh tortgan taqdirda, kontrakt tuzish huquqi zaxiradagi birinchi qatnashchiga beriladi.

58. Agar tender bo`lib o'tmagan yoki salbiy natijaga ega bo`lgan taqdirda tender qaytadan o'tkazilishi mumkin.

59. Tenderni o'tkazish bilan bog`liq nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalarda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

60. Tender natijalari 3 kun mobaynida ishchi organ tomonidan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

X-I. Mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko`rsatuvchilar) uchun narx imtiyozlari bergan holda tender savdolari o`tkazishda tender takliflarini baholash xususiyatlari

60¹. Ushbu Nizomning 55-bandiga oltinchi xatboshida nazarda tutilgan narx imtiyozlari tender savdolariga qo`yilgan va ular bevosita tovar ishlab chiqaruvchilar (ishlar bajaruvchilar, xizmatlar ko`rsatuvchilar) (keyingi o`rinlarda mamlakatimiz korxonalari-ishlab chiqaruvchilari deb ataladi) ekanligini tasdiqlaydigan zarur hujjatlarni tender komissiyasiga taqdim qilgan mamlakatimiz korxonalari-ishlab chiqaruvchilari (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko`rsatuvchilar)ga beriladi.

60². Tender ishtirokchisi tomonidan import tovarlari yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko`rsatish) bilan eng yaxshi narx taklif etilgan taqdirda tender komissiyasi mamlakatimiz korxonalari-ishlab chiqaruvchilari takliflari orasidan ko`rsatilgan eng yaxshi narxga kamida 20 foizga oshiradigan va tender savdolari va qonun hujjatlari shartlariga mos keladigan uchtagacha eng yaxshi takliflarni tanlab oladi. Bunda, qonun hujjatlari muvofiq qo`shimcha qiymat solig`idan ozod qilinadigan tender ishtirokchisi tomonidan import tovarlari yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko`rsatish) bilan eng yaxshi narx taklif etilgan bo`lsa mamlakatimiz korxonalari-ishlab chiqaruvchilari takliflarini tanlab olish uchun qo`shimcha qiymat solig`i summasiga qo`shib hisoblagan holda ko`rsatib o`tilgan eng yaxshi narx qo`llaniladi.

Tender komissiyasi bir kun mobaynida tanlab olingan mamlakatimiz korxonalari-ishlab chiqaruvchilari bilan navbatma-navbat ularning tender takliflari narxlarini kamaytirish yuzasidan to`g`ridan-to`g`ri muzokaralar olib boradi va muzokaralar natijalarini tasdiqlaydi. Bunda har bir mamlakatimiz korxonalari-ishlab chiqaruvchilari bilan muzokaralar natijalari protokol bilan rasmiylashtiriladi va g`olib aniqlangunga qadar konfedensial hisoblanadi.

60³. Mamlakatimiz korxonalari-ishlab chiqaruvchilari bilan to`g`ridan-to`g`ri muzokaralar natijalari bo`yicha quyidagilar:

mamlakatimizning boshqa korxonalari-ishlab chiqaruvchilariga nisbatan — olib kirishda qo`shimcha qiymat solig`i to`lash bo`yicha imtiyoz berish qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlari bo`yicha eng yaxshi narxni taklif etgan;

mamlakatimizning boshqa korxonalari-ishlab chiqaruvchilariga nisbatan, lekin qo`shimcha qiymat solig`i summasiga qo`shib hisoblagan holda import tovarlari yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko`rsatish) bo`yicha eng yaxshi narxdan oshmaydigan — olib kirishda qo`shimcha qiymat solig`i to`lashdan ozod qilish bo`yicha imtiyoz qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo`yicha eng yaxshi narxni taklif etgan mamlakatimiz korxonasi-ishlab chiqaruvchisi tender g`olibi deb aniqlanadi.

60⁴. Tender ishtirokchisi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq qo`shimcha qiymat solig`i to`lashdan ozod qilinadigan import tovarlari yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko`rsatish) bo`yicha eng yaxshi

narx taklif etilgan bo`lsa va mamlakatimiz korxonalari-ishlab chiqaruvchilari bilan to`g`ridan-to`g`ri muzokaralar natijalariga ko`ra, qo`sishma qiymat solig`i summasiga qo`shib hisoblagan holda ko`rsatilgan eng yaxshi narxdan oshmaydigan narxni taklif etish mumkin bo`limgan taqdirda, import tovarlar yetkazib berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko`rsatish) bo`yicha eng yaxshi narx taklif etgan tender ishtirokchisi tender g`olib deb e`lon qilinadi».

(X-I bo`lim O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 20-fevraldaggi 50-sonli garoriga asosan kiritilgan — O`R QHT, 2009 y., 9-son, 89-modda)

XI. Tender natijalari bo`yicha tuzilgan kontraktlar bajarilishining kafolati, ro`yxatga olinishi va ijro etish monitoringi

61. Zaruriyat bo`lganda tender g`olibi kontrakt bajarilishining kafolati sifatida kontrakt umumiy summasining o`n foizigacha bo`lgan summaga buyurtmachiga xizmat ko`rsatuvchi bank bilan vakillik hisobvarag`iga ega bo`lgan bankning kafolati sifatida majburiyatlar bajarilishini yoki buyurtmachining hisobvarag`iga pul depoziti o`tkazilishini ta'minlaydi.

62. Tender natijalari bo`yicha tuzilgan import kontraktlarni ekspertizadan o`tkazish yuqorida ko`rsatilgan bank kafolatini olish bo`yicha buyurtmachining tasdig`i bo`lganda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizning ishlab chiqaruvchilari (yetkazib beruvchilari) g`olib deb topilganda tender natijalari bo`yicha tuzilgan kontraktlar O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida ekspertizadan o`tkazilmaydi.

(62-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 8-sentyabrdagi 206-son garori tahririda — O`R QHT, 2005 y., 34-36-son, 264-modda)

63. Tender kontraktlarini bajarish monitoringi buyurtmachi tomonidan kontraktlar to`liq va o`z vaqtida bajarilgunga qadar buyurtmachiga xizmat ko`rsatuvchi bankka axborot taqdim etish bilan amalga oshiriladi.

XII. Yakunlovchi qoidalar

(XII-bo`limning nomi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 23-maydaggi 143-sonli garori tahririda — O`R QHT, 2012 y., 21-son, 232-modda)

63¹. Tanlov (tender) savdolarini o`tkazishda raqobat to`g`risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishi monopoliyaga qarshi organ tomonidan nazorat funksiyalarini amalga oshirishda, o`rganishlar o`tkazishda, shuningdek xo`jalik yurituvchi sub`yektlar, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari murojaatlari va tegishli organlarning taqdimnomasi asosida nazorat qilinadi. Ushbu nazorat va

o`rganishni amalga oshirish tartibi monopoliyaga qarshi organ tomonidan belgilanadi.

(63¹-band O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 23-maydagi 143-sonli garoriga asosan kiritilgan — O`R QHT, 2012 y., 21-son, 232-modda)

64 Quyidagilar:

ishchi organ tarkibiga kirgan shaxslar tushgan tender takliflarining hisobga olinishi, ularning saqlanishi va maxfiyligi uchun;

tender komissiyasining raisi va a'zolari ma'lumotlarning oshkor qilinmasligi, tender qatnashchilari, tender komissiyasining qolgan a'zolari va jalb qilingan ekspertlar bilan til biriktirilishiga yo'l qo'yilmasligi, shuningdek boshqa huquqqa zid harakatlarga yo'l qo'yilmasligi uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tarzda javob beradilar.

65. Kontraktni miqdor, sifat va texnik ko`rsatkichlar bo`yicha bajarmagan tender g`olibi qonun hujjatlarida va/yoki kontraktda nazarda tutilgan tarzda javob beradi.